

bo'yicha taxminan 5 000 MVt (+gidro 400 MVt) ishga tushirildi, yashil energiya umumiy generatsiya quvvatidagi ulushi 30 % ga yetdi. 2024-yilda QTEM elektr energiyasi ishlab chiqarishdagi ulushi ~16 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yil iyul–sentabr oylarida bir oyda 27 % gacha ko'tarildi. Hozirda 17 ta yirik quyosh va shamol stansiyasi xorijiy investitsiyalar hisobiga qurilmoqda. 2030-yil maqsadi: 25 GVt quvvatga chiqarish.

Energiya samaradorligi bo'yicha 2018–2023-yillarda YaIM energiya sig'imi 37 % ga kamaydi. iCRAFT³¹⁵ loyihasi doirasida energiya tejavchi texnologiyalar joriy etilib, sanoat va binolarda modernizatsiya davom etmoqda. Yashil energiya sertifikatlari va moliyalashtirish uchun 2025-yilda jami 446 520 ta I-REC(E) sertifikati emissiya qilingan. Eng katta hajm — “Navoiyuran” uchun 250 ming dona bo'lgan. 2025-yil 9 oylik yakuni bo'yicha jalb qilingan mablag'lar Jahon banki — 7,5 mln. \$ grant, YTTB — 200 mln dollar, OTB va boshqa donorlardan jalb etilgan. Shuningdek, suvni tejash uchun tomchilatib sug'orish va raqamli monitoring tizimi kengaytirilmoqda. Chiqindilar 9 ta klaster 1 mln tonna chiqindini qayta ishlamoqda. Yer degradatsiyasi va o'rmonlashtirish uchun “Yashil Makon” dasturi doirasida Orolbo'yi hududida 1,7 ming gektar o'rmon barpo etilib, 2 mln. gektar cho'l hududi o'simliklar bilan qoplandi; yashil qoplama ulushi oshirilmoqda. Strategiyani amalga oshirish natijasida mamlakat energiya xavfsizligi mustahkamlandi, gaz importiga qaramlik sezilarli darajada kamaydi, “yashil” ish o'rinlari yaratildi va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik kengaydi. 2025-yilda MRV tizimi, yashil sertifikatlar bozori va uglerod savdosi to'liq ishga tushirildi. Bu ko'rsatkichlar energiya samaradorligini oshirish, issiqxona gazlarini kamaytirish va resurslardan oqilona foydalanish borasida asosiy maqsadlariga erishilayotganini ko'rsatadi.

O'ZBEKISTONDA MEHNAT MIGRANTLARI PUL O'TKAZMALARINING JORIY DINAMIKASI VA MOLIYA BOZORI BARQARORLIGIGA TA'SIRI

Ismoilov Azizbek Jo'rabek o'g'li

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti,

“Tashqi iqtisodiy faoliyat” yo'nalishi 2-bosqich magistri

Annotatsiya. Mazkur tezisda O'zbekistonda mehnat migrantlari pul o'tkazmalarining joriy dinamikasi hamda ularning moliya bozori barqarorligiga ta'siri kompleks statistik tahlil asosida o'rganilgan. Tadqiqotda pul o'tkazmalarining umumiy o'zgarish tendensiyalari, hududlar kesimidagi ulushi, viloyatlarning remitenslarga bog'liqlik darajasi hamda asosiy donor davlatlar


³¹⁵iCRAFT — bu Jahon banki tomonidan Markaziy Osiyo davlatlari uchun amalga oshirilayotgan mintaqaviy tashabbus bo'lib, u “Innovative Climate Resilient Agriculture and Food Trade – iCRAFT”, iqlimga chidamli qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlar savdosini innovatsion rivojlantirish loyihasi hisoblanadi.

bo'yicha tarkibi tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu mablag'larning bank tizimi likvidligi, depozit bazasining kengayishi, kreditlash hajmi va valyuta bozori barqarorligiga ta'siri baholanadi. Olingan natijalar migrantlar pul oqimlari mamlakat moliya tizimi barqarorligini qo'llab-quvvatlovchi muhim omil ekanligini ko'rsatish bilan birga, ularga yuqori darajada bog'liqlik tashqi iqtisodiy xatarlar sharoitida muayyan risklarni yuzaga keltirishi mumkinligini ham asoslaydi. Tezis yakunida remitenlardan samarali foydalanish va ularni investitsion jarayonlarga yo'naltirish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: *mehnat migratsiyasi, pul o'tkazmalari, remitenlar, moliya bozori, bank tizimi likvidligi, valyuta bozori, hududiy bog'liqlik, investitsion salohiyat, makroiqtisodiy barqarorlik, iqtisodiy rivojlanish.*

2017–2025-yillar davomida O'zbekistonga amalga oshirilgan mehnat migrantlari pul o'tkazmalari dinamikasi tahlili ushbu moliyaviy oqimlarning mamlakat iqtisodiyoti va moliya bozori barqarorligida muhim o'rin tutishini ko'rsatadi. Statistik ma'lumotlariga ko'ra, 2017-yilda 4,9 mlrd AQSH dollarini tashkil etgan pul o'tkazmalari hajmi 2018–2020-yillarda nisbatan barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etib, mos ravishda 5,1 mlrd, 6,01 mlrd va 6,03 mlrd dollarga yetgan. 2021-yildan boshlab remitenlar hajmida sezilarli o'sish kuzatilib, 8,1 mlrd dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda keskin oshib 16,9 mlrd dollarga yetgan. Ushbu keskin o'sish tashqi mehnat migratsiyasi hajmining kengayishi, ayrim donor davlatlarda ish haqi darajasining oshishi hamda pul o'tkazmalari kanallarining raqamlashtirilishi bilan izohlanadi. 2023-yilda global iqtisodiy noaniqliklar va ayrim tashqi mehnat bozorlaridagi iqtisodiy sekinlashuv fonida pul o'tkazmalari hajmi 11,4 mlrd dollargacha qisqargan bo'lsa-da, keyingi yillarda tiklanish tendensiyasi kuzatilib, 2024-yilda 14,8 mlrd dollarga yetgan. Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda pul o'tkazmalari hajmi 2024-yilga nisbatan 27,2 foizga oshib, 18,9 mlrd AQSH dollarini tashkil etgan. Ushbu o'sishga, asosan, rubl kursining mustahkamlanishi hamda boshqa davlatlarga mehnat migrantlari oqimining ortishi sabab bo'lgan. Shuningdek, aholining valuta sotuvi va xaridi o'rtasidagi ijobiy tafovut 2025-yilda 9,7 mlrd dollarni tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 1,4 barobarga oshgani kuzatilgan.

O'zbekistonga kirib kelgan pul o'tkazmalarining 2025-yil oylar kesimidagi tahlili ham migrantlar remitenlari hajmida barqaror o'sish tendensiyasi mavjudligini ko'rsatadi. Rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda yilning barcha oylarida pul o'tkazmalari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan yuqori darajada shakllangan. Jumladan, yanvar oyida pul o'tkazmalari hajmi 1 060 mln AQSH dollarini tashkil etib, 2024-yildagi 805 mln dollarga nisbatan sezilarli o'sishni namoyon etgan bo'lsa, fevral oyida 1 078 mln dollar, mart oyida esa 1 218 mln dollarga yetgan.




1-rasm. Xorijiy mamlakatlardan O'zbekistonga yuborilgan pul o'tkazmalari dinamikasi. 2017-2025-yillar.

Manba: Markaziy bank ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Bahor oylarida ham ijobiy dinamika davom etib, aprel oyida 1 432 mln dollar, may oyida 1 642 mln dollar hamda iyun oyida 1 785 mln dollar miqdorida pul o'tkazmalari qayd etilgan. Yoz oylarida migrantlar daromadlarining oshishi va mavsumiy ish faoliyatining faollashuvi natijasida iyul oyida 1 973 mln dollar bilan yilning eng yuqori ko'rsatkichi kuzatilgan bo'lsa, avgust oyida 1 907 mln dollar miqdorida pul o'tkazmalari amalga oshirilgan. Kuz oylarida ham yuqori daraja saqlanib qolib, sentabr oyida 1 836 mln dollar, oktabr oyida 1 862 mln dollar qayd etilgan. Yil yakuniga yaqin esa noyabr oyida 1 498 mln dollar va dekabr oyida 1 598 mln dollar miqdorida pul o'tkazmalari amalga oshirilgan. Mazkur pul oqimlarining asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston Respublikasi, Amerika Qo'shma Shtatlari, Janubiy Koreya, Turkiya, Buyuk Britaniya va boshqa Yevropa davlatlarida faoliyat yuritayotgan mehnat migrantlari tomonidan yuborilgan.

Asosiy mehnat migrantlarimizning taxminan 70 % dan ortig'i Rossiya Federatsiyasida faoliyat yuritadi va ushbu pul oqimi asosan yoz va kuz oylariga to'g'ri keladi. Qish faslida sovuq iqlim sharoitlari sababli ko'plab migrantlar O'zbekistonga qaytadi. Buning natijada, ma'lum davr mobaynida ular ish bilan ta'minlanmay qoladi va yuboriladigan remitenlar hajmi sezilarli darajada kamayadi. Shu nuqtai nazardan, pul oqimlarining barqarorligini ta'minlash va mamlakat iqtisodiyotiga tushadigan mablag'larni yil davomida izchillik bilan ushlab turish maqsadida migratsiya geografiasini kengaytirish zarur. Jumladan, issiq iqlimli va qish fasli kam bo'lgan mamlakatlar Avstraliya, Janubiy Koreya, Turkiya kabi yuqori maoshli ish o'rinlarini taklif etuvchi hududlarga migrantlarni yo'naltirish, mavsumiy tebranishlarni kamaytirish va remitenlar hajmini barqaror saqlash imkonini beradi. Bunday strategiya nafaqat migratsiya

oqimlarining diversifikatsiyasini oshiradi, balki O'zbekiston moliya tizimi va hududiy iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, shuningdek, mahalliy iste'mol va sarmoya jarayonlarini rag'batlantirishga ham xizmat qiladi.




2-rasm. O'zbekistonga kirib kelgan pul o'tkazmalari. 2024-2025-oylar kesimida.

Manba: Markaziy bank ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Tahlillar pul o'tkazmalarining amalga oshirilish mexanizmlarida ham muhim o'zgarishlar yuz berayotganini ko'rsatadi. Umumiy pul o'tkazmalarining qariyb yarmi an'anaviy xalqaro pul o'tkazish tizimlari orqali amalga oshirilgan bo'lsa, qolgan qismi bank kartalari o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri P2P o'tkazmalar orqali amalga oshirilgan. Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, P2P o'tkazmalar ulushining ortib borayotgani raqamli moliyaviy xizmatlarning kengayib borayotganini hamda ilgari norasmiy kanallar orqali amalga oshirilgan pul oqimlarining tobora ko'proq rasmiy bank tizimiga jalb etilayotganini ko'rsatadi.

Hududlar kesimida pul o'tkazmalariga bog'liqlik ko'rsatkichlarining oshishi 2024 va 2025-yillarda O'zbekiston viloyatlari iqtisodiyotida migrantlar remitenlarining strategik ahamiyatini yaqqol namoyon etadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilda hududlar bo'yicha bog'liqlik foizlari 3,2% dan 27,6% gacha o'zgarib, 2025-yilda 5,3% dan 32,5% gacha yetgan. Eng yuqori bog'liqlik Surxondaryo, Andijon va Farg'ona viloyatlarida kuzatilgan bo'lib, bu hududlarda pul o'tkazmalari mahalliy iqtisodiyotning asosiy daromad manbai sifatida faoliyat ko'rsatadi. Misol uchun, Surxondaryo viloyatida remitenlarning YAIMdagi ulushi 32% atrofida bo'lib, ko'plab oilalar o'z oilaviy byudjetlarini asosan Rossiya va Qozog'istondagi migrantlar tomonidan yuborilgan mablag'lar

orqali shakllantiradi. Shu bilan birga, Toshkent shahri, Navoiy va Buxoro kabi diversifikatsiyalashgan hududlarda pul o'tkazmalariga bog'liqlik nisbatan pastroq bo'lib, 5–15% atrofida, va ushbu mablag'lar asosan mahalliy iste'mol va kichik biznes sarmoyalarini rag'batlantirishga xizmat qiladi.



3-rasm. O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha pul o'tkazmalariga bog'liqlik darajasi. 2024-2025-yillar

Manba: Markaziy bank ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Migrantlar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijasiga ko'ra, 24 ming respondentning 58% mablag'larini kundalik xarajatlarga, 18%ni kredit to'lovlariga, 12%ni jamg'armaga, qolgan qismini esa ko'chmas mulk, biznes va boshqa ehtiyojlar uchun sarflaydi.³¹⁶ Bundan ma'lumki, pul o'tkazmalari nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, balki hududiy iste'mol va sarmoya faoliyatini rag'batlantirishdagi ahamiyatini ko'rsatadi. Shu tarzda, pul o'tkazmalarining yuqori ulushi hududiy iqtisodiy faollik, bank tizimi likvidligi, depozit bazasining kengayishi va valyuta bozori barqarorligini qo'llab-quvvatlashga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Biroq, ba'zi hududlarning remitenlarga yuqori darajada bog'liqligi ularni tashqi iqtisodiy shoklar, xorijiy valyuta kurslari tebranishi va global mehnat bozoridagi o'zgarishlarga sezgir qiladi. Masalan, Surxondaryo va Farg'ona viloyatlarida oila daromadlarining katta qismi Rossiya va Qozog'istondagi migrantlar yuboradigan mablag'lardan kelgani sababli, valyuta kursining keskin o'zgarishi yoki migrantlar sonining qisqarishi ushbu viloyatlar iqtisodiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, hududiy rivojlanish strategiyasida pul o'tkazmalarining makroiqtisodiy va investitsion ahamiyatini hisobga olish, ularni mahalliy ishlab chiqarish, sarmoya va infratuzilma loyihalariga yo'naltirish mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

³¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki o'tkazgan so'rovnoma natijalari asosida e'lon qilingan ma'lumotlar

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, migrantlar pul oqimlari nafaqat hududiy iqtisodiyot va ichki iste'molni rag'batlantiradi, balki bank tizimi likvidligi, depozit bazasining kengayishi, kreditlash hajmi va valyuta bozori barqarorligini mustahkamlash orqali mamlakat moliya tizimining barqarorligini samarali qo'llab-quvvatlaydi. Ayrim hududlarning remitenlarga yuqori darajada bog'liqligi ularni tashqi iqtisodiy shoklar, global valyuta kurslari tebranishi va mehnat bozori o'zgarishlariga ta'sir ostida qoldiradi va natijada iqtisodiy risklar ortadi. So'rovnomalar natijasida aniqlanishicha, pul o'tkazmalarining asosiy qismi kundalik xarajatlarga yo'naltirilsa-da, muayyan ulushi kredit to'lovlari, jamg'arma, ko'chmas mulk va biznes loyihalariga sarflanmoqda. Shu orqali ularni investitsion salohiyat manbai sifatida ham qadrladi. Shundan kelib chiqqan holda, mamlakat va hududlar iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash hamda tashqi iqtisodiy xatarlarni kamaytirish maqsadida remitenlarni rasmiy bank tizimi orqali qabul qilishni kengaytirish, migratsiya geografiyasini diversifikatsiya qilish, pul oqimlarining bir qismini hududiy ishlab chiqarish va kichik biznes loyihalariga yo'naltirish, moliyaviy ta'lim va mas'uliyatni oshirish hamda remitenlarning mavsumiy o'zgarishlarini monitoring qilish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Bunday strategiyalar nafaqat pul oqimlarining ijobiy ta'sirini maksimal darajada oshiradi, balki mamlakat moliya tizimi va hududiy barqarorlikni mustahkamlash, shuningdek, iqtisodiy risklarni sezilarli darajada kamaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. "Yillik moliyaviy hisobot 2025."*
- 2. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. "O'zbekistonning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va moliyaviy barqarorlik hisobotlari, 2024–2025."*
- 3. World Bank. "Migration and Remittances Data 2025." Washington, D.C.: World Bank, 2025.*
- 4. ILO (International Labour Organization). "Labour Migration Trends in Central Asia 2024–2025." Geneva: ILO, 2025.*
- 5. United Nations Economic and Social Commission for Asia and the Pacific (UNESCAP). "Remittances and Economic Development in Asia-Pacific, 2024." Bangkok: UNESCAP, 2024.*